

## BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA ONA TILI O‘QITISH METODIKASINI QO‘LLASH HAQIDA

Xakimova Nazokat Suhbatilla qizi

*Yakkasaroy tumani 144-maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darslarida ona tili o‘qitish metodikasini qo‘llash haqida so‘z yuritilgan. Ona tilini o‘rgatish bilan bog‘liq holda maktablar oldiga qo‘yilgan tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish, o‘quvchilarda axloqiy va estetik sifatlarni shakllantirish.*

**Kalit so‘zlar:** *Savod o‘rgatish metodikasi, grammatika, fonetika, so‘z yasashini o‘rganish metodikasi, nutq o‘stirish metodikasi.*

Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi yuqori sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining dastlabki bosqichi bo‘lib, u tekshiradigan masalalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tadbiqan (muvofig ravishda) o‘rgatadi. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish grammatika, imlo va unga bog‘liq holda nutq o‘stirish metodikasinigina emas, balki xat-savod o‘rgatish, sinfda va sinfdan tashqari o‘qish metodikalarini ham o‘z ichiga oladi. Shulardan kelib chiqib, boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi fani quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) boshlang‘ich sinflarda ona tili kursining mazmuni, hajmi va mavjud tizimini, ya‘ni kursning (xat-savod o‘rgatish, o‘qish, grammatika, imlo, nutq o‘stirish va h.k.) dasturini belgilash va asoslash;

b) o‘qish va yozuvdan bilim va ko‘nikmalarning shakllanishi jarayonini ham da bu jarayonda o‘quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni o‘rganish, xatolarning sababini tahlil qilish, ularning oldini olish va to‘g‘rilashga yordam beradigan ish turlarini ishlab chiqish;

d) ona tilidan beriladigan o‘quv materialini o‘quvchilar aniq tushunishi va puxta o‘zlashtirishiga, ularda olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olishga va o‘quvchilarning umumiy taraqqiyotiga, ya‘ni ularning zehni, xotirasini, kuzatuvchanligini, yodda saqlashini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy o‘ylashini, nutqini o‘stirishga yordam beradigan metod va vositalarni ishlab chiqish;

Ona tili metodikasi ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida ona tilini o‘qitishning izchillik va uzluksizligini ta‘minlaydi. Maktabgacha tarbiya muassasasida, asosan, bolalarning nutqini o‘stirish nazarda tutiladi. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar nutqini o‘stirishdan tashqari, ona tilidan elementar nazariy tushunchalarni amaliy o‘zlashtirishlari ham nazarda tutiladi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi fani quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1. Savod o‘rgatish metodikasi, ya‘ni elementar o‘qish va yozishga o‘rgatish. Bolalarga savod o‘rgatish pedagogika fanidagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy masalalardan hisoblanadi.

2. O‘qish metodikasi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish predmetining vazifasi bolalarni to‘g‘ri, tez (me‘yorida), ongli va ifodali o‘qish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

3. Grammatika, fonetika, so‘z yasashini o‘rganish metodikasi. Bu bo‘lim elementar to‘g‘ri yozuvga va husnixatga o‘rgatishni, grammatik tushunchalar, boshlang‘ich imlo malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

4. Nutq o‘stirish metodikasi. Bu bo‘lim boshlang‘ich sinflarda alohida o‘rin tutadi. Bolalar birinchi navbatda tilni, nutqni o‘quv predmeti sifatida anglaydilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o‘ylab, rejali nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydilar. Ular o‘zining grafik shakli bilangina emas, balki leksikasi, sintaktik va morfologik shakli bilan ham og‘zaki nutqdan farq qiladigan yozma nutqni ham egallaydilar.

Ona tili o‘qitish metodikasining metodologik asosi borliqni bilish nazariyasidir. Bu fanning bosh vazifasi o‘quvchilarning o‘zbek tili lug‘at boyligini to‘liq o‘zlashtirib olishlarini ta‘minlashdir. Ma‘lumki, jamiyatda til kishilar o‘rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordam idagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani m uhokam a va xulosa bilan bog‘lash amalga oshadi.

Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog‘lanadi. Tilni egallash va nutq o‘stirish bilan o‘quvchining fikrlash qobiliyati ham o‘sib boradi. Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzluksiz ta‘lim tizimi orqali har tomonlarni barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Ona tili o‘qitish metodikasi fani ham ta‘lim jarayonini tashkil etish shakllarini va usullarini ishlab chiqishda yuqoridagi maqsadlar asosida ish yuritadi. Umumiy o‘rta ta‘limning bir bosqichi bo‘lgan boshlang‘ich ta‘lim I-4-sinflarni o‘z ichiga oladi. Milliy dasturda ta‘kidlanganidek, bu bosqichda ta‘limning yangicha tizimini va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

— o‘quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta‘limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

— ta‘lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarini yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta‘minlash va hokazo.

Milliy dasturda ta‘lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish bo‘yicha ta‘kidlangan ko‘rsatmalar, uzluksiz ta‘limni ta‘minlash borasidagi islohotlarni amaliyotga tatbiq etish boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. J. G ‘. Yo‘ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: „O‘qituvchi“, 2004.
2. O‘. Tolipov, M. Usmonbekova. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. — T.: „Fan“, 2006.
3. N.N. Azizxo‘jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2006.